


Dastlabki ma'lumotlar

2020– yilning yanvar–sentabr oylarida Buxoro viloyatining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020– yilning yanvar–sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiyligi hajmi 16 501,3 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,1 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 16 343,7 mlrd. so'mni (103,0 %), o'rmon xo'jaligi – 90,9 mlrd. so'mni (101,5 %), baliq xo'jaligi – 66,7 mlrd. so'mni (110,7 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarkibida Buxoro viloyatining ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sish sur'ati




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2020–yilning yanvar–sentabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 99,1 % i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 0,5 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 0,4 % i – baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2020–yilning yanvar–sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Buxoro (2 025,3 mlrd. so‘m) va Jondor (1 896,6 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kogon shahri (8,9 mlrd. so‘m), Buxoro shahri (266,1 mlrd. so‘m) va Qorovulbozor tumani (495 mlrd. so‘m) keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichidan (103,1 %) yuqori o‘sish sur’atlari Qorovulbozor (109,9 %), Jondor (104,9 %), Buxoro (104,0 %), G’ijduvon (103,5 %) va Shofirkon (103,2 %) tumanlarida kuzatildi. Kogon shahrida (88,7 %), Buxoro shahrida (100,1 %), Olot (100,0 %), Qorako'l (101,5 %), Romitan (101,9 %), Kogon (102,7 %), Vobkent (103,0 %) va Peshku (103,1 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.


Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2020– yilning yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 16 277,8 mlrd. so'mni yoki 2019– yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 7 740,5 mlrd. so'mni (102,4 %), chorvachilik mahsulotlari – 8 537,3 mlrd. so'mni (103,6 %) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 77,4 % i – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 21,2 % i – fermer xo‘jaliklariga, 1,4 % i – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




2020–yilning yanvar–sentabr oylari yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qorovulbozor tumanida (53,9 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Kogon shahrida (88,6 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Kogon shahrida (11,4 %) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Kogon tumanida (13,2 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Qorovulbozor tumanida (42,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Qorako‘l tumanida (0,3 %) qayd etildi.


Dehqonchilik

2020–yilning yanvar–sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 7 740,5 mlrd. so‘mni yoki 2019–yilning mos davriga nisbatan 102,4 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 47,6 % ni tashkil qildi.

Donli ekinlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 484,1 ming t. donli ekinlar (2019–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 1,2 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 80,7 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




Buxoro viloyati bo'yicha
donli ekinlar yetishtirish
hajmi, tonna




Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 643,5 ming t. sabzavotlar (2019– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 5,4 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiylajmidan 85,4 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




Buxoro viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 210,2 ming t. kartoshka (2019–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 1,4 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,5 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.




Buxoro viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna




Poliz


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 115,9 ming t. poliz (2019–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 3,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiylajmidan 80,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Buxoro viloyati bo'yicha
poliz yetishtirish
hajmi, tonna




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 214,9 ming t. meva va rezavorlar (2019– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 1,6 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar ishlab chiqarish umumiylajmidan 60,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Buxoro viloyati bo'yicha
meva va rezavorlar
yetishtirish
hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 159,1 ming t. uzum (2019– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 3,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiylajmidan 60,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



Buxoro viloyati bo'yicha
uzum yetishtirish
hajmi, tonna




Chorvachilik



2020–yilning yanvar–sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 8 537,2 mlrd. so‘mni yoki 2019–yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarning umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 52,4 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora–tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to’ldirishga imkon yaratdi.




2020–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 190,4 ming t. go’sht (2019–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 4,5 % ga ko‘p), 709,3 ming t. sut (2,4 % ga ko‘p), 325,9 mln. dona tuxum (0,2 % ga ko‘p), 2 871,0 t. jun (3,3 % ga ko‘p), 431,7 ming dona qorako‘l teri (0,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi va 4 260,0 t. baliq (9,7 % ga ko‘p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 190,4 ming t. go'sht (2019–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 4,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiyo hajmidan 94,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Buxoro viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, tonna**




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 709,3 ming t. sut (2019– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 2,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 95,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Buxoro viloyati bo'yicha ishlab chiqarilgan sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 325,9 mln. dona tuxum (2019–yilning yanvar–sentabriga nisbatan 0,2 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiyligi hajmidan 61,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Buxoro viloyati bo'yicha
olingan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2020– yilning yanvar–sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 4 260,0 t. (2019– yilning yanvar–sentabriga nisbatan 9,7 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiyligi hajmidan 73,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Buxoro viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2020–yining 1–oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,8 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligidan 11,8 % i fermer xo'jaliklariga, 80,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishi, otlar umumiyligidan 27,7 % i fermer xo'jaliklariga, 65,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiyligidan 17,6 % i fermer xo'jaliklariga, 56,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 25,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 221,0 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 12,7 ming taga (1,1 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,2 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Buxoro viloyati
bo'yicha yirik shoxli
qoramollarning umumiy
bosh soni, ming bosh**




2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 402,2 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 4,5 ming taga (1,1 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Buxoro viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh**




2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 172,0 ming taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 38,1 ming taga (1,8 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi)
xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini
amalga oshiruvchi
tashkilotlar



2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 80,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



**Buxoro viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh**




2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiyligi bosh soni 5 758 taga yetdi.


2019– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 403 taga (7,5 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O’sish sur’ati



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 65,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Buxoro viloyati
bo'yicha otlarning
umumiyl bosh soni, bosh




2020–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 4 963,4 ming taga yetdi.


2019–yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 265,3 ming taga (5,6 %) ko‘paydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati




Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2020–yilning 1–oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 56,9 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Buxoro viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiy bosh soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- 65-223-44-45
- 65-223-72-59